Adabiyotlar tahlilidan ko'rinadiki, tadqiqotlar asosan boshlang'ich ta'limda matematika fanini o'qitish va o'rgatishda metakognitiv strategiyalardan foydalanishning ahamiyati haqida olib borilgan [3]. Aniq fanlarni o'zlashtirish davomida duch kelinadigan murakkabliklarni yengillashtirishda amaliyotda qo'llash usuli foydalidir. Ta'limning barcha bosqichlarida o'quvchilar o'z bilishlarini nazorat qilish va o'z bilimlarini tartibga solish qobiliyatlarini shakllantirish orqali kelajakdagi faoliyatlari uchun muhim tayyorgarlik ko'radilar.

Maktabda aniq fanlarni o'qitish va o'rgatishga ta'sir qiluvchi omillar — o'qituvchilarning metakognitivlik haqidagi tushunchalari, metakognitiv strategiyalar ahamiyati va o'quvchilarning bilimlarini tartibga solish qobiliyatlarini shakllantirish — metakognitiv qobiliyatlarning rivojlanishiga asos bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bilim – bu fanning mohiyatini anglashdir, ta'lim esa o'quvchilarga mohiyatni tayyor shaklda tushuntirish emas, balki uni mustaqil ravishda topishga o'rgatishdir. Fanlarni o'qitishda metakognitiv strategiyalardan foydalanish fanning mohiyatini anglashda, o'z bilish jarayonini nazorat qilishda samarali yordam beradi.

Fizika va matematika darslarida metakognitsiya tushunchasi murakkab topshiriqlarga yechim topish uchun jarayonlarni rejalashtirish, tanlash, nazorat qilish, hal etish, kognitiv faoliyatni boshqarish va natijani baholash kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Metakognitivlik – bu o'quvchining muammoli topshiriqlarga yechim topishda o'z bilimi va bilish jarayonini boshqarish qobiliyatidir. O'quvchi o'z kognitiv faoliyatini, topshiriqdagi muammo va yechim usullari haqidagi bilimlarini anglaydi [4].

Masalaga kirishgan o'quvchi berilgan topshiriqni tushunmasligini sezadi, topshiriqning ifodalanish usuli uni anglashni qiyinlashtiradi. Bunday holatda qo'shimcha chizilgan grafik yoki jadval o'quvchining tasavvur qilishiga va tushunishiga yordam beradi [5].

Nazorat – bu o'quvchining o'z bilimini faol ravishda kuzatish va tartibga solish orqali amalga oshiriladigan jarayon. Bu borada quyidagi metakognitiv strategiyalardan foydalaniladi: yechim usulini rejalashtirish, reja asosida natijani kuzatish va baholash. Berilgan topshiriqlarni yechishda o'quvchidan harakat rejasini ishlab chiqish, eng maqbul yechim usulini tanlash, uni amalga oshirishni kuzatish, jarayonni nazorat qilish, bajarilganlik darajasini baholash va foydalanilgan bilimlarni tahlil qilish kutiladi [6].

Bugungi kunda aniq fanlarni o'qitishda metakognitsiyaga qiziqish ortib bormoqda. Bu – o'quvchining o'z-o'zini boshqarish qobiliyatiga ega bo'lish jarayoni sifatida o'rganilmoqda [5], [6]. Shuningdek, u o'qituvchi



tomonidan o'rgatilishi va modellashtirilishi mumkin bo'lgan o'rganish strategiyasi sifatida qaralmoqda [7]. Ellis va boshqalar (2014) hamda Foures ta'kidlashlaricha, o'qituvchilar amaliy darslarda uch asosiy metakognitiv strategiyalarni rag'batlantirishlari kerak: rejalashtirish, monitoring va baholash.

Rejalashtirish – bu masalalarni yechish jarayonini belgilash va bajarilishi lozim bo'lgan bosqichlarni oldindan ko'rib chiqish bilan bog'liq [8]. Darslarda bu strategiyani qo'llash, o'quvchini masala ustida o'ylashga undovchi savollar berish, ko'rsatmaning tushunariligidini aniqlash hamda muammoning asosiy ma'lumotlarini aniqlash orqali amalga oshiriladi [9].

Monitoring – bu jarayonni nazorat qilish va uni to'g'irlashdan iborat. O'qituvchi o'quvchini muammoni hal qilish jarayonini kuzatishga, xatolarni aniqlashga, zarurat tug'ilganda uni o'zgartirishga yoki tasdiqlashga undaydi [10].

Baholash – bu masalani yechish jarayonining natijalarini tahlil qilish, ularni taqqoslash va to'g'riligini aniqlashdan iborat [8]. Dars jarayonida o'qituvchi o'quvchini natijani dalillashga, reja va amalga oshirish bosqichlarining to'g'riligini aniqlashga, umumlashtirishga va boshqa shunga o'xshash masalalarni hal qilishga yo'naltiradi [11].

Rigo va boshqalar (2010) ta'kidlashlaricha, o'quvchilarning metakognitsiyasini tavsiflovchi tadqiqotlar ko'p bo'lsa-da, o'qituvchining roli va uning metakognitsiya hamda matematika o'rganishdagi o'zini boshqarishga ta'siri hali yetarli o'rganilmagan. Ularning fikricha, maktablarda o'qituvchilar tomonidan metakognitiv strategiyalarni qo'llash bo'yicha tadqiqotlar soni kam.

O'quvchi "strategiya ishlab chiqish uchun o'ylaydi", kerakli resurslar va bilimlarni aniqlaydi hamda bu jarayon orqali qanday va nima uchun o'rganayotganini tushunadi [12]. O'zini o'zi boshqarish esa o'quvchining o'z fikrlari, harakatlari, hissiyotlari va motivatsiyasini nazorat qilish qobiliyati orqali aniqlanadi. Bu qobiliyatlar o'quvchining shaxsiy strategiyalar bilan belgilangan maqsadlarga erishishini ta'minlaydi [13].

2024-yil 27-martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 157-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomda sinflar kesimida egallanishi lozim bo'lgan kognitiv, jismoniy, ijtimoiy, emotsional, o'qish, yozish, savodxonlik, hisoblash kabi ko'nikmalar belgilab berilgan.

Davlat ta'lim standartlariga (DTS) ko'ra, o'quvchi o'z o'rganish jarayonini nazorat qilish nuqtayi nazaridan ongli subyekt bo'lishi kerak. Mazkur standart hayot davomida ta'lim olish va inson kapitalini rivojlantirish uchun poydevor yaratishni, shuningdek, umumta'lim fanlari bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirishni maqsad qiladi. O'quvchi o'zining o'rganish jarayonini qanday va nimalarni o'rganayotganini ongli tarzda idrok etadigan shaxsga aylanishi lozim.

Shu bois, DTSda o'quvchilarning metakognitiv jarayonlarini rivojlantirish va mustaqil o'rganuvchiga aylantirish asosiy vazifa sifatida belgilangan. Metakognitsiyaga erishish uchun matematika va fizika fani o'qituvchilari darslarda o'quvchilarga o'z o'rganish jarayoni va duch kelayotgan qiyinchiliklari ustida fikr yuritish, ularni oldini olish yoki to'g'rilash bo'yicha muhit yaratishlari lozim.

Boshqacha aytganda, o'quvchini o'z o'rganishlarini ongli ravishda idrok etish, uni nazorat qilish hamda o'z bilimini oshirishga undash zarur. Bu esa o'qituvchilardan o'quvchilarning bilish va o'rganish jarayonlarini boshqarish qobiliyatlarini qanday rivojlantirish kerakligi haqida chuqur bilimga ega bo'lishni talab qiladi.


Fikr yuritish, muammoni aniqlash va nazorat qilish metakognitsiya nuqtayi nazaridan amalga oshadi. O'z-o'zini boshqarish o'quvchini faol, mustaqil va harakatlarini ongli ravishda boshqaradigan shaxsga aylantiradi. Bu esa masalalarni hal qilish, rejalashtirish, diqqatni jamlash va nazorat qilish jarayonlarida alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va DTS mazmunidan ko'rinadiki, o'quvchilarda metakognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish ularning kelajakdagi faoliyati va kasbiy o'sishi uchun muhim ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Umumta'lim maktablarda "mezonlarga asoslangan baholash tizimi"ni joriy etish o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishida muhim qadam hisoblanadi. Matematika va fizika darslarida ataylab yoki bexosdan metakognitiv strategiyalarni misollar orqali tushuntirish – samarali o'rganish usuli sifatida qaraladi. Tadqiqotda qatnashgan o'qituvchilarga metakognitiv strategiyalarni amaliy darslarda qo'llash yuzasidan ularning o'ziga xos va umumiy jihatlari tavsiflanib, izohlab berildi. Tajriba uchun umumta'lim maktabining fizika va matematika fanlari o'qituvchilari tomonidan ba'zi sinflarda metakognitiv strategiyalar asosida darslar tashkil etildi, qolgan sinflarda esa an'anaviy uslubda darslar o'tkazildi. O'qituvchilar va o'quvchilarning roziligi oldindan olindi, tanlov mezonlariga rioya qilindi hamda o'quvchilarning mustaqil o'rganish qobiliyatlarini shakllantirishga bo'lgan katta qiziqish kuzatildi. Tadqiqot ishtirokchilari uchun yakunda kutilgan natijalarni umumlashtirish maqsadida o'quvchilarning akademik salohiyatini aks ettiruvchi taxminiy portret tuzildi (1-rasm).

TADQIQOTDA ISHTIROK ETADIGAN O'QUVCHILAR UCHUN PORTRET



1-rasm. Tajribada ishtirok etadigan o'quvchilarning portreti¹

Tanlangan sinf o'quvchilar portretiga quyidagi qobiliyatlar kiritildi:

1. O'z ustida ishlovchi;
2. Mustaqil qaror qabul qiluvchi;
3. Raqamli savodxon;
4. Tanqidiy fikrlovchi;
5. Muammolarni hal qiluvchi;
6. Ijodkor va innovator;
7. Jamoada hamkorlikda ishlovchi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aniq fanlarni o'qitishda metakognitiv strategiyalardan foydalanish orqali tajriba yakunida o'quvchilarda rivojlantirilishi kutilayotgan natijalarga yuqorida tilga olingan qobiliyatlar ham kiritilgan. Bu qobiliyatlar Davlat ta'lim standartlari Nizomi talablarida ham belgilab berilgan.

Avvalo, o'qituvchilarning tanlov asosida maktabga qabul qilinganligi, o'z mutaxassislik fanlaridan milliy sertifikatlariga egaligi, guruhlarini boshqara olish qobiliyati, tajribaliligi va ishga mas'uliyat bilan yondashishi tadqiqotning muvaffaqiyatli o'tishida muhim omil bo'ldi.

Shuningdek, o'quvchilarning olgan bilimlarini aniqlashda ularning fanni bilish darajasi, olingan bilimni amaliyotda qo'llay olishlari va mustaqil mulohaza yurita olishlari "mezonlarga asoslangan baholash tizimi"ning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Metakognitiv strategiyalar yordamida o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikma kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan mazmunli ta'limiy faoliyatni loyihalash orqali ularning o'quv jarayonini yengillashtirish mumkin.

O'z navbatida, o'quvchilarni o'z o'rganish jarayonining mustaqil boshqaruvchilari sifatida shakllantirish ham hisobga olingan. Shu nuqtayi nazardan, o'quv dasturidan chetga chiqmagan holda, sinfdagi o'quvchilar sonidan qat'i nazar, o'qituvchi o'z mas'uliyatini to'laqonli bajarmog'i, ta'lim jarayoniga nisbatan belgilangan talablarni ado etmog'i lozim.

Tadqiqot ma'lumotlarini to'plashda suhbat usulidan foydalanildi. Kutilgan natijalarni aniq baholash maqsadida suhbat uchun intervyu yo'riqnomasi ishlab chiqildi. Asosiy maqsad – metakognitiv bilimlar va ularni aniq fanlar darslarida qanday qo'llash mumkinligi haqidagi nazariy tushunchalar va amaliy tajribalarni ilgari surishdan iborat.

¹ Muallif ishlarnasi



O'z navbatida, o'qituvchilar yangilangan Davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlaridan samarali foydalanib, fanni o'rgatish ishlarini olib bordilar.

Suhbatlar metakognitsiya tushunchasining mazmuni, rejalashtirish, kuzatish va baholash kabi asosiy strategiyalar, shuningdek, ushbu strategiyalarni o'quvchilarda rivojlantirish uchun o'qituvchilik amaliyotida mavjud imkoniyatlar mavzulariga qaratilgan edi. Tadqiqot doirasida o'tkazilgan suhbatlarda fikrlar bir-birini takrorlamasligi uchun ular alohida-alohida tashkil etildi (1-jadval).

1-jadval. Qatnashuvchi o'qituvchilar uchun suhbat yo'riqnomasining asosiy yo'nalishlari

Farmonov	Maqsad
Umumta'lim maktablarida DTS ga asoslangan ta'lim	O'qituvchilarning metakognitsiya, o'z-o'zini anglash va o'z bilishini boshqarishga oid qonuniy talablar haqidagi bilimni rivojlantirish.
Nazariy bilim	O'qituvchining metakognitsiya va o'z bilishini boshqarish haqidagi bilimni o'rganish.
O'qituvchilik tajribasi va mahorati	O'qituvchining mahorati va tajribasiga asoslanib, darslarda metakognitiv strategiyalarni rivojlantirish bo'yicha amaliyotda nimalarni amalga oshirayotganini o'rganish.

Tadqiqotda to'plangan ma'lumotlar induktiv toifalar asosida tahlil qilindi. Buning uchun yozib olingan suhbat ma'lumotlari hamda o'qituvchilarning javoblari quyidagi uchta toifaga ajratildi:

Davlat ta'lim standartlarida o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga qo'yilgan talablar hamda metakognitsiya tushunchasi asosida ajratilgan fikrlar;

O'qituvchining dars jarayonida metakognitsiyani rivojlantirishga qaratilgan pedagogik harakatlari;

Fanlarda uchraydigan muammolar yuzasidan qo'llanilgan strategiya turlari (2-jadval).

2-jadval. Suhbatda to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish uchun induktiv toifalar

Toifa	Ko'rsatkichlar
Davlat ta'lim standartlarida metakognitsiya.	O'qituvchilarga qo'yilgan talablar.
O'qituvchining metakognitsiya haqidagi tushunchasi.	O'zini anglash, o'zini nazorat qilish va bilim olishni o'rganish o'rtasidagi o'xshashliklar/farqlar. O'qituvchining metakognitsiyani rivojlantirish uchun qiladigan harakatlari.
Aniq fanlarni o'qitishda metakognitiv strategiyalar.	Rejalashtirish: muammo tuzilishini tahlil qilish; Monitoring: mos strategiya tanlash, bajarilgan amallar; Baholash: tushuntrish va asoslash, qiymat hukmlari.

Tahlil natijasida o'qituvchilar uchun metakognitsiyaning ma'nosi, uni o'zini anglash, o'zini boshqarish va bilim olishni o'rganish tushunchalari bilan bog'liqligi, Davlat ta'lim standartlari talablarini qanday talqin qilishlari hamda darslarida metakognitsiyani amalda qanday qo'llashlari borasidagi yondashuvlar o'rtasida o'xshashliklar va farqlar aniqlandi. Natijalar quyida keltirilgan bo'lib, ular uchta toifa va ularga mos ko'rsatkichlar asosida taqdim etilgan.

Davlat ta'lim standartlari talablariga ko'ra, o'quvchilarda o'zini anglash (refleksiya), o'zini boshqarish va bilim olishni o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish – bu o'qituvchilarning o'quvchilarda metakognitiv qobiliyatlarni shakllantirish faoliyatini bildiradi. Bu sharhda metakognitsiyaning ikki asosiy jihati ajralib turadi: a) fan mazmunini o'quvchining kundalik hayotiga tatbiq eta olishi va uning ma'nosini tushunishi; b) o'quvchining o'z o'rganish faoliyatida ishtirok etishi va bunga mas'uliyat bilan yondashishini anglash.

O'rganilgan nazariy va amaliy bilimlarni o'quvchilar hayot davomida qo'llay olishlari zarur. Masalan, fizika fanida elektr toki haqidagi nazariy bilimlar o'zlashtirilgach, amaliyotda bu bilimlarni qo'llash, shu bilan birga texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilish bo'yicha ko'rsatmalar berilishi orqali maqsadga erishiladi. Yoki Pifagor teoremasi o'rgatilganda, o'quvchi uni qayerda va qanday holatda qo'llash mumkinligini anglay olishi lozim.

O'quvchilar darslardan foydali bilim olishlari va bilim qanday hosil bo'layotganini tushunishlari muhim. Darslarda mulohaza qilishga urg'u berilishi orqali o'quvchilar o'zlari egallagan bilimlardan foydalangan holda, darsda o'rganilgan matematik va fizik mazmunlarni boshqa kontekstlarda ham qo'llash mumkinligini anglay boshlaydilar. Bunday natijaga erishish uchun metakognitiv strategiyalardan samarali foydalanish zarurati mavjud.

O'quvchilar guruhlarda ishlash davomida tengdoshlari yoki o'qituvchi bilan fikr almashadilar, yechimlar topadilar, sodir bo'lgan holatlar haqida mulohaza yuritadilar va shu orqali o'z bilimlarini shakllantiradilar. Shu sababli metakognitiv strategiyalarni amaliyotga tatbiq etish yo'llari ishlab chiqilishi lozim.



Shuningdek, o'quvchining fanlarni oson o'zlashtirishiga va anglashiga ko'mak beruvchi turli faoliyatlar dars jarayonida qo'llanilishi mumkin. Avvalo, o'quvchilarning fanni o'zlashtirish uslublari – tinglab, ko'rib yoki bajarib o'rganish qobiliyatlari aniqlanishi kerak. O'qituvchi esa o'quvchini ta'lim markaziga qo'yib, uning faolligini oshirishda metakognitiv strategiyalardan foydalanishi lozim. Bu dars samaradorligini oshiradi hamda o'quvchining mustaqillik darajasini yuksaltiradi.

Metakognitiv strategiyalarni dars jarayonida qo'llash orqali o'quvchilar o'zini boshqarish va o'rganish faoliyatini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantiradilar. Tajriba darslaridan keyin olingan natijalarda farqlar va o'xshashliklar tahlil qilindi. O'qituvchilarning metakognitsiya haqidagi tushunchalari, ya'ni o'zini boshqarish, o'zlashtirishni nazorat qilish va o'rganish jarayoni haqida mulohaza yuritish elementlari bo'yicha yondashuvlari tahlil qilindi.

Tajriba uchun sinflar ikki guruhga ajratildi: tanlov guruhi va odatiy guruh. Eksperiment doirasida tanlov guruhidagi o'quvchilarga metakognitiv strategiyalarni qo'llash imkonini beruvchi boyitilgan fan dasturi asosida darslar tashkil etildi. Darslarda o'quvchilar o'z o'rganish jarayonlarini rejalashtirish, monitoring qilish va baholash bo'yicha mashqlar bajardilar. Har bir darsdan so'ng ular o'zini baholash, o'z faoliyatini tahlil qilish va dars davomida duch kelgan qiyinchiliklar hamda ularni qanday yengganliklari haqida yozma fikrlar bildirdilar.

Odatiy guruhda esa darslar an'anaviy metodlar asosida olib borildi hamda metakognitiv strategiyalarni qo'llash bo'yicha hech qanday maxsus topshiriqlar berilmadi. O'quvchilarning o'z-o'zini baholash va bilimlarini boshqarish qobiliyatlarini aniqlash maqsadida maxsus ishlab chiqilgan so'rovnomalar va kuzatuvlar orqali ma'lumotlar to'plandi. Ushbu ma'lumotlar statistik tahlil qilinib, tanlov guruhi va odatiy guruh natijalari o'zaro solishtirildi (3-jadval).

3-jadval. O'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishiga oid natijalari

Ko'nikmalar	Matematika		Fizika	
	Tanlov guruhi %	Odatiy guruh %	Tanlov guruhi %	Odatiy guruh %
O'zlashtirishini nazorat qilish	87	63	83	57
O'z-o'zini baholash	78	57	86	60
Murakkab topshiriqlarni hal qilish	85	60	77	53
Mustaqil o'rganish	90	65	76	62

Metakognitiv strategiyalar yordamida o'quvchi nimani o'rganmoqchi ekanini, bu unga qanday foyda berishini hamda qanday o'rganish kerakligini anglab yetishi lozim. O'quvchi o'rganayotgan narsa haqida xabardor bo'lishi, o'rganilganini bilishi yoki tushunishi, bilimga erishishda o'zining usul va yondashuvlaridan foydalana olishi kerak.

Metakognitsiya – bu o'quvchining mulohaza orqali o'rganish jarayonini anglashidir. U qanday ma'lumotlar kerakligini va qanday o'rganish usullari samaraliroq bo'lishini tushunadi. Masalan, murakkab topshiriqlarga qancha vaqt ajratilishi, qaysi mustaqil o'rganish texnikalari foydaliroq bo'lishi yoki muammoni hal qilishda qaysi ma'lumotlar eng qulay hisoblanishi kabi savollar metakognitiv fikrlashga asos bo'ladi.

Yuqoridagi tahliliy jadval asosida xulosa qilish mumkinki, darslarda metakognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish o'quvchining fanlarni o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Rejalashtirish – bilimlarni umumlashtirish va o'rganishning amaliy ahamiyatini anglash orqali namoyon bo'ladi. Masalan, xona sig'imini o'lchash yoki shamol generatori yordamida elektr toki ishlab chiqarish kabi bilimlarni amaliyotda qo'llay olish o'quvchining o'zini baholashi va mustaqil o'rganish qobiliyatining ifodasidir.

Shuningdek, turli vaziyatlarda o'zini va bilimini nazorat qilish, murakkab topshiriqlarga yechim topa olish – bu darslarda metakognitiv qobiliyatlarni shakllantirishning samarali natijalaridandir.

“Mezonlarga asoslangan baholash tizimi” – bu ijodiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, muloqot va hamkorlik (creative thinking, critical thinking, communication, cooperating) tamoyillariga asoslanadi. Yangi baholash tizimiga ko'ra, bir chorak davomida o'quvchilar maksimal 100 ball to'plashadi: o'tilgan bo'limlar bo'yicha summativ baholash 50 ball, chorak yakunidagi summativ baholash 40 ball, formativ baholash esa o'qituvchi tomonidan 10 ballik shaklda baholanadi.

Quyidagi jadvalda “Mezonlarga asoslangan baholash tizimi”dan foydalanilgan. Unga ko'ra, o'z-o'zini baholash modeli o'quvchining o'z bilim va malakasini baholash qobiliyatiga asoslanadi (4-jadval).



4-jadval. O'z-o'zini baholash koeffitsiyenti (Self-Assessment Coefficient)

	O'quvchilar soni	O'z-o'zini baholash	O'qituvchi nazorat ishiga qo'ygan bali	O'z-o'zini baholashning to'g'rilik koeffitsiyenti (% da) quyidagi formula yordamida topilgan $SA=(1-(S-T) / T) \times 100\%$
1	Abdurasulov Javohir	32	29,7	92,3
2	Abdusamadov Bexruzxon	40	28	57,1
3	Bo'riyeva Munisa	35	24	54,2
4	Boymurodova Laylo	34	29,7	85,5
5	Dusiyorova Charos	37	31,1	81,0
6	Hamidova Afro'za	40	32,1	75,4
7	Murodova Shaxzoda	35	23	47,8
8	Nafasova Dilshoda	35	32,4	92,0
9	Naxshevanqulova Nigina	38	35,2	92,0
10	Normamatova E'zoza	40	40	100,0
11	Omonova Madina	40	34,5	84,1
12	Safaraliyeva Asila	39	38	97,4
13	Sherqulova Asila	40	22	18,2
14	Tilovmurodova Farzona	35	28	75,0
15	To'rayeva Hulkar	35	31,2	87,8
16	Toshpulatova Madina	35	23	47,8
17	To'ychiyev Alisher	40	37,6	93,6
18	Xasanova Sevara	34	32	93,8
19	Xoliqulov Azizbek	35	32,6	92,6
20	Ziyodullayev Asilbek	40	28,7	60,6

Izoh: $SA=(1-|S-T| / T) \times 100\%$

Bu yerda:

SA – o'z-o'zini baholashning to'g'rilik koeffitsiyenti (% da),

S – o'quvchining o'ziga qo'ygan bahosi,

T – o'qituvchi yoki ekspert tomonidan qo'yilgan baho.

Metakognitiv strategiyaga ko'ra, o'quvchilar nazorat ishidan oldin o'zlariga taxminiy baholar qo'yishgan. Bir nafar o'quvchi (18,2 ball) o'z bilimini baholashda yuqori xatolikka yo'l qo'ygan, besh nafar o'quvchi o'rtacha xatoga yo'l qo'ygan, o'n uch nafar o'quvchi esa o'zini yuqori aniqlikda baholagan va bir nafar o'quvchi bilimini to'liq aniqlik bilan baholagan. Darslar davomida o'z-o'zini baholash ko'nikmalari ham rivojlantirildi. Qoniqarsiz natijaga ega o'quvchilarning xatolari tahlil qilindi. Asosan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashdagi qiyinchiliklar va vaqtni to'g'ri taqsimlay olmaslik hollari aniqlandi.

Monitoring o'tkazish orqali o'quvchilar o'z bilimlarini baholaydilar, o'qituvchilar esa o'zlashtirish darajasini aniqlaydilar. Aniqlangan kamchiliklar asosida tegishli strategiyalar ishlab chiqilib, keyingi darslarda qo'llanildi. Metakognitiv strategiyaning mohiyati — o'quvchini o'ylashga, muammoni hal qilishga yo'naltirish va buning uchun mos vaziyatlarni taqdim etishdan iborat. O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarni bilimni yaxshiroq o'zlashtirishga yo'naltirishi, muammoni hal qilish uchun maxsus bilimlar va shaxsiy strategiyalarni qo'llashlariga imkon yaratishi kerak.

Metakognitiv baholash — bu o'quvchining muammoni hal qilish jarayonini rejalashtirishi, amalga oshirishi, o'z-o'zini va bir-birini baholashi orqali yuzaga chiqadi. O'quvchilar uchun foydali o'rganish strategiyalarini bilish va ularni amaliyotda qo'llash katta ahamiyatga ega, chunki bu bilimni nafaqat egallash, balki amalga qo'llash imkonini ham beradi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tajribada ishtirok etgan o'quvchilar metakognitsiya haqida tasavvurga ega bo'lishdi va uni darslarda qanday qo'llash mumkinligini anglab yetishdi. O'qituvchilar uchun darslarni rejalashtirish, o'quvchilarni kuzatish va baholash tushunchalari aniq, biroq har bir o'qituvchi metakognitiv strategiyalarni o'z pedagogik mahorati va yondashuviga qarab farqli tarzda qo'llaydi.

O'qituvchilik faoliyati o'quvchilarning o'zlashtirish jarayoniga bevosita ta'sir qiladi va fanlarni o'qitish amaliyotini takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi o'z darslarida o'quvchilarni faollikka undashi, metakognitiv strategiyalarni qanday qo'llash mumkinligini ko'rsatib berishi, shu bilan birga, zarur nazariy va didaktik bilimlar bilan ta'minlashi zarur.

O'quvchilarda metakognitivlik, o'z-o'zini anglash va boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o'quv jarayonida rejalashtirish, kuzatish va baholashga doir savollar berilishi lozim. Masalan:

"Aniq nima qilyapsan?" – o'quvchi jarayonni aniqroq tasvirlab berishi kutiladi;

"Nima uchun shunday qilyapsan?" – o'quvchi bajarayotgan ishining muammoni hal etish bilan qanday bog'liqligini tushuntiradi;

"Bu qanday yordam beradi?" – o'quvchi natijani qanday qo'llashi mumkinligini izohlaydi.

Dars jarayonida metakognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishda to'g'ri savollar berish va mos pedagogik yondashuvlarni tanlash o'qituvchining malakasi va darsni qanday tashkil etishiga bevosita bog'liqdir. O'qituvchi yuqoridagi kabi savollarni bermasa ham, berilayotgan topshiriqlar orqali metakognitsiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi ko'rsatmalarni kiritishi mumkin.

Aniq fanlar bo'yicha metakognitsiya haqidagi bilimlardan kelib chiqib, o'qituvchilar darsda mavzuni aniq misollar bilan tushuntirishi va nazariy haqiqatlarni o'quvchiga yaqqol namoyish qilishi lozim. Ta'lim muassasalarida darslarni samarali tashkil etish, o'quvchilarni mustaqil izlanuvchi shaxs sifatida shakllantirish va ta'lim jarayonining kuchli hamda zaif tomonlarini tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish to'g'risida"gi 106-son Farmoni. — <https://lex.uz/uz/docs/-5960622>
2. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi 901-son Qonuni. — <https://lex.uz/uz/docs/6786401>
3. Özsoy, G. (2011). An investigation of the relationship between metacognition and mathematics achievement. *Asia Pacific Education Review*, 12(2), 227–235. <http://doi.org/10.1007/s12564-010-9129-6>
4. Martínez, X. (2017). Metacognitive pedagogies and the construction of a dialogical forum. *Educational Innovation*, 17(74), 8–10. <https://www.ipn.mx/assets/files/innovacion/docs/Innovacion-Educativa74/pedagogias-metacognitivas.pdf>
5. Klimenko, O., & Alvares, J. L. (2009). Aprender cómo aprendo: la enseñanza de estrategias metacognitivas. *Educación y Educadores*, 12(2), 11–28. <https://educacionyeducadores.unisabana.edu.co/index.php/eye/article/view/1483>
6. Wulandari, S. B., & Minarni, A. (2018). Analysis of students' metacognition ability in mathematical problem solving on problem-based learning in SMA Negeri 1 Binjai. *Journal of Research & Method in Education*, 8(1), 32–40.
7. Díaz, A., Pérez, M. V., González-Pineda, J. A., & Núñez, J. C. (2017). Impacto de un entrenamiento en aprendizaje autorregulado en estudiantes universitarios. *Perfiles Educativos*, 39(157), 87–104. <https://doi.org/10.22201/iisue.24486167e.2017.157.58442>
8. Fourés, C. I. (2011). Reflexión docente y metacognición. Una mirada sobre la formación de formadores. *Zona Próxima*, (14), 150–159. <http://rcientificas.uninorte.edu.co/index.php/zona/article/viewFile/68/1316>
9. Ellis, A. K., Denton, D. W., & Bond, J. B. (2014). An analysis of research on metacognitive teaching strategies. *Procedia – Social and Behavioral Sciences*, 116, 4015–4024. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2014.01.883>
10. Osses, S., & Jaramillo, S. (2008). Metacognición: un camino para aprender a aprender. *Estudios Pedagógicos*, 34(1), 187–197. <http://revistas.uach.cl/index.php/estped/article/view/3300>
11. Özsoy, G., & Ataman, A. (2009). The effect of metacognitive strategy training on mathematical problem solving achievement. *International Electronic Journal of Elementary Education*, 1(2), 67–82. <https://www.iejee.com/index.php/IEJEE/article/view/278>
12. Wulandari, S. B., & Minarni, A. (2018). Analysis of students' metacognition ability in mathematical problem solving on problem-based learning in SMA Negeri 1 Binjai. *Journal of Research & Method in Education*, 8(1), 32–40.
13. Panadero, E., & Tapia, J. (2014). How do our students self-regulate? Review of Zimmerman's cyclical model of self-regulated learning. *Annals of Psychology*, 30(2), 450–462. <http://doi.org/10.6018/analesps.30.2.167221>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
